

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/6 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ .....	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ .....	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ .....	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА .....	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI .....	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI .....	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES .....	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS .....	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI .....	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI .....	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ .....	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
---	---------

*Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li*

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
---	---------

*Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich*

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

*Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi*

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
---	---------

*Raimov Elbek Bahodirovich*

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

*Alieva Kamola Ravshanovna*

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
--	---------

*Juraeva Asal*

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
---	---------

*Rakhmonov Otabek*

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
--	---------

*Айбек Якубов*

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
--	---------

*Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li*

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi .....	179-184
---	---------

#### **07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li*

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

*Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li*

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
---	---------

#### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Imamov Javokhir*

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
--	---------

#### **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna*

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
--	---------

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Bawetdinov Mukhammeddin*

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI ..... 210-215

*Соҳибова Зарнигор*

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) ..... 216-219

*Jonridova Sanobar Sherali qizi*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI ..... 220-224

*Sharipova Mokhidil*

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Umarov Abdurasul Abdurahimovich*

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D  
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH ..... 232-237

*Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi*

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY  
QARASHLARI ..... 238-245

*Qalandarova Maxliyo*

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH  
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ..... 246-251

*Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна*

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

*Ibragimova Venera Azadovna*

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

*Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA  
IFODALANISHI ..... 265-269



**Received:** 10 August 2024  
**Accepted:** 15 August 2024  
**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **THE LEGAL PROCEDURE FOR EXECUTION OF ADMINISTRATIVE JUDICIAL ACTS**

**Zoilboev Javlon**

Senior lecturer at Tashkent State University of Law

E-mail: [jzoilboyev@gmail.com](mailto:jzoilboyev@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the author carries out a legal analysis related to the enforcement focus of court documents accepted by administrative courts. The analysis was based largely on two different contents of court documents. In it, first of all, the decision of the decision made by the administrative courts on the results of the content of the case and the legal procedure for bringing decisions into legal force and focusing on execution are analyzed, then the procedural document analyzes the procedure established in the legislation in connection with the execution of the numbered judgments as well. The analysis is enriched with statistics as well as keys from practice. Also, during the analysis, legal solutions as well as proposals for legislation are given as a result of analyzes to existing problems in the legislation.

**Key words:** court documents, decision of settlement, execution of court documents, entry into legal force, court ruling, court order.

## **MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJROGA QARATISHNING HUQUQIY TARTIBI**

**Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlarining ijroga qaratilishi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy tahlilni amalga oshiradi. Tahlil sud hujjatlarining asosan ikki xil mazmunidan kelib chiqib olib borilgan. Unda dastavval, ishni mazmunan ko'rish natijalari bo'yicha ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qarori hamda qarorlarni qonuniy kuchga kirishi va ijroga qaratilishining huquqiy tartibi tahlil qilinsa, keyin protsessual hujjat sanalgan ajrimlarning ham ijroga qaratilishi bilan bog'liq qonunchilikda belgilangan tartibni tahlil qiladi. Tahlil statistik ma'lumotlar hamda amaliyotdan keyslar bilan boyitiladi. Shuningdek, tahlil davomida qonunchilikda mavjud muammolarga tahlillar natijasida huquqiy yechimlar hamda qonunchilikka takliflar beriladi.

**Kalit so'zlar:** sud hujjatlari, hal qiluv qarori, sud hujjatlarini ijro qilish, qonuniy kuchga kirish, sud ajrimi, sud qarori.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N21.2>

**Kirish.** Jahon huquqshunoslik nazariyasida hamda odil sudlov institutida muayyan huquqiy terminlar hamda tushunchalar keng qo'llaniladi. Mana shunday tushunchalardan biri, shu bilan birga, huquqshunoslar uchun ham oddiy fuqarolar-u yuridik shaxslar uchun eng ahamiyatli bo'lgani sud hujjatlari sanaladi. Sud hujjatlarining bu qadar muhimlik kasb etganligining bosh sabablaridan biri esa faqatgina odil sudlovni amalga oshiruvchi sud

hokimiyati tomonidan muayyan keyslarni hal qilish natijalari bo'yicha qabul qilinishi orqali u yoki bu shaxsning muayyan huquqlariga va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga daxl qilishi bilan izohlanadi.

2017-yildan buyon O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan Ma'muriy sudlar faoliyatining ham tub maqsadi hamda uning asosiy vazifalari ham aynan ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish; qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish sanaladi. Mazkur vazifalar amalda bo'lgan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda ham mustahkamlab qo'yilgan[1]. Mana shu maqsadlar hamda vazifalarni amalga oshirish uchun, albatta sud tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlarini ijroga qaratish hamda uni kuchga kirishi eng muhim jihat sanaladi. Shunday ekan, endilikda ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlarining qonuniy kuchga kirishi va uni ijroga qaratilish bilan bog'liq huquqiy masalalarni tahlil qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 7-moddasi aynan ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur normada sudlar tomonidan 3 ta turdagi sud hujjatlari qabul qilinishi mumkinli mustakamlab qo'yilgan. Jumladan, ma'muriy sudlar tomonidan hal qiluv qarori, qaror hamda ajrim shakllarida sud hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilgan. Nazariy jihatdan ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlari yuzasidan ilmiy ishlar kamroq sanaladi. Sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlarining umumiy nazariy jihatlari Sh.Sh.Shoraxmetov, E.E.Egamberdiyev, S.A.Yakubov, Z.N.Esanova, M.M.Mamasiddiqov, D.Yu.Xabibullaev, S.A.Maripova, K.K.Olimova va H.A.Quchqarovning ishlarida fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarorlari bilan bog'liq ayrim masalalar tadqiq etilgan. Bu borada M.M.Mamasiddiqov va Z.N.Esanovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan va bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizoli ishlar bo'yicha chiqariladigan sud hal qiluv qarorlarining mazmuni va ahamiyatiga doir masalalar bayon etilgan. Bugungi kunda mazkur tadqiqotlar, shubhasiz, fuqarolik prosessual qonunchiligini takomillashtirishda muhim nazariy poydevor vazifasini o'taydi. Ma'muriy sudlarda qabul qilinadigan sud hujjatlari bo'yicha esa D.R.Artikov, J.N.Nematov, Sh.Y.Juraev, N.B.Jovliev, J.K.Zoilbyev, Y.S.Saidazimov, B.Z.Umarov Sh.I.Shayzakov, Tojiboev M.M, N. S. Pulatova, shuningdek, K.Ichihashi, J.Tomlinson, K.Sheridan, Y.Tixomirov, O.Eremina, S.Nikitin, V.Kirsanov, Y.Popova, O.Fayziev va boshqa huquqshunoslar tomonidan ilmiy ishlarida hamda maqola va o'quv adabiyotlarida tahlillar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ma'muriy sud hujjatlari ijrosini ta'minlash masalalarining ayrim jihatlari milliy olimlarimiz N.A.Abdurahimova, M.C.Isakova, Z.M.Sulaymanova, I.Bekmirzayev, U.A.Tuxtasheva, D.R.Qurbonov, D.R.Artikov va boshqalarning darslik va o'quv qo'llanmalarida qisman o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur mavzu yuzasidan kompleks tadqiqot ishi olib borilmagan.

Shuningdek, **Tog'oyeva Malikabonu Sulton qizi[2]**, **N.Po'latova[3]**, **Bozorov Maqsudali Maxmudovich [4]**, **Ramazanov Sayfullo Narzullaevich[5]**, **Kamol Mardonov[6]**, **Abbos Doniyorov[7]** va **Raxmonov Sarvarbek Azimjonovich[8]** kabi huquqshunoslar hamda

tadqiqotchilar tomonidan sud hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy jihatlari hamda sud hujjatlarini ijro qilmagan uchun huquqiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Sud hujjatlarini, xususan Ma'muriy sudlar tomonida qabul qilinadigan sud hujjatlarini ijroga qaratishda mavjud muammolarga e'tibor qaratgan sudya S.Raxmonov masalaning normativ asosida muayan kamchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi[8, B34]. Jumladan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 276-moddasida ifodalangan ushbu normalarda muayyan kamchilik bor deb hisoblaydi amaliyotchi: "sud hujjatining ijrosi hal qiluv qarori (qarori) asosida, pul mablag'larini majburiy undirish bo'yicha sud hujjatining ijrosi esa sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi". Uning tahlillariga ko'ra ma'muriy sud ishlarini yuritishda nomulkiy tusdagi sud hujjatlarini ijro etishda muammolar mavjud bo'lib, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Kodeksning 276-moddasiga muvofiq ijro varaqasi faqat pul mablag'larini undirish to'g'risidagi hujjatlar bo'yicha ma'muriy sudlar tomonidan beriladi. Boshqa ajrimlar (qarorlar) majburiy ijroga taqdim etilmaydi, sababi sudlar tomonidan ular bo'yicha ijro varaqasi berilmaydi, ma'muriy sudning ajrimi (qarori) ijro hujjati hisoblanmaydi. Mazkur vaziyatda amalaliyota hamda protsessual tartibda muammo borligini ko'rishimiz mumkin. Chunki sud tomonidan qabul qilingan ma'muriy sud qarori ham, ma'muriy sud ajrimi ham ijroga qaratilishi kerakligini alohida ta'kidlash lozim.

Ma'muriy sud hujjatlarini ijro qilishning huquqiy jihatlari haqida ilmiy maqola muallifi Abbos Doniyorovning fikriga ko'ra sudlarda, jumladan Ma'muriy sudlarda ishlarni oqilona muddatlarda ko'rib chiqish prinsipi joriy qilinishi kerakligini, shuning natijasida esa ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining ham oqilona muddatlarda qonuniy kuchga kirib, ijroga qaratilishi kerakligini ilgari surgan[7, B156]. Undan tashqari, Ma'muriy sud hujjatlarini ijrosini kechiktirish hamda unga o'zgartirishlar kiritish haqida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda hech qanday norma o'rin olmaganligini keltirib, mazkur masalalarni tahlil qilishga doir normalarni kodeksga kiritish takliflarini bergan.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining alohida bitta bo'limida ( IV Bo'lim: Sud hujjatlarini ijro etish) hujjatlarini ijro qilish haqidagi normalari mustahkamlangan. Ushbu bo'limda jami 12 ta norma sud hujjatlarini ijroga qaratishga bag'ishlangan. Xususan, MSIYtK ning 276-moddasining 1-qismida sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach ijroga qaratilishi belgilangan, lekin shuni yodda saqlash kerakki bunday ijroga qaratish muayyan toifadagi sud hujjatlarida o'zgacha ijroga qaratish nazarda tutilgan bo'lsa qo'llanilmaydi. Bunday toifadagi ishlar bevosita Ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladigan saylov komissiyalarining qarorlari bilan bog'liq nizolar hamda idoraviy-normativ hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi nizolar kabi ishlarda sud hujjatlarini darhol ijroga qaratish nazarda tutiladi.

Sud hujjatining ijrosi hal qiluv qarori (qarori) asosida, pul mablag'larini majburiy undirish bo'yicha sud hujjatining ijrosi esa sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshirilishi ham aynan MSIYtK ning IV bo'limida nazarda tutilgan 276-moddasida nazarda tutilgan. Lekin mana shu yerda muayyan huquqiy kolliziya yuzaga kelishini ko'rmoqdamiz. Xususan, MSIYtK ning 7-moddasida sudlar tomonidan sud hujjati sifatida ajrimlarning ham qabul qilinishi nazarda tutilgan. Kodeks normalarini tahlil qilish natijasida shuni ko'rish mumkinki, har bir protsessual masalalar yuzasidan sud ajrimlari qabul qilinadi. Shundan kelib chiqadiki, ma'muriy sudlar tomonidan eng ko'p qabul qilinadigan sud hujjatlari ham aynan sud ajrimlari sanaladi. To'g'ri sud ajrimi mazmunan ko'rib chiqilmaydigan

masalalar yuzasidan, ya'ni sudning protsessual masalalari yuzasidan qabul qilinadi. Lekin shunday mazmundagi ajrimlar borki, u yo arizachini yoki sudning boshqa ishtirokchilarining muayyan huquqlari hamda manfaatlariga bevosita daxl qiladi. Jumladan, dastlabki himoya choralarini ko'rish haqidagi sud ajrimlari shular jumlasidandir. Sababi, ushbu mazmundagi ajrimlar mulkka hamda ishtirokchilarning muayyan huquqlarini cheklash bilan izohlanadi.

Shuningdek, kodeksda ifodalanishicha, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari, agar sud tomonidan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ular qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir oy ichida ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa organlar, tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan ijro etilishi lozim. Bu normada bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz joizki, yuqorida tahlil qilinganidek, bir necha toifadagi ishlarni mazmunan ko'rish natijasi yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarolari darhol ijroga qaratiladi. Boshqa, ya'ni MSiyTK ning 27-moddasida nazarda tutilgan qolgan 6 ta toifadagi ishlarni mazmun ko'rish natijasi yuzasidan qabul qilinadigan sud hal qiluv qarorlarini qonuniy kuchga kirishi va ijroga qaratilishi uchun qonunchilikda belgilangan bir oylik muddat talab etiladi. Bu esa mazkur muddatsiz ham o'zining buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklashni so'rab murojaat qilgan shaxslar uchun ham ko'plik qiladi. Masalaning yana bir muhim jihati bor, ma'muriy sudga shikoyat qilish muddati kodeksning 186-moddasida ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran olti oy ichida sudga berilishi mumkin. Huquqlari va huquqiy manfaatlari buzilgan shaxslar uchun bu muddat ko'p bo'lib, mazkur muddatdan so'ng yana bir oylik muddatning qo'shilishi yana ham qiyinchilik keltirib chiqarishi sir emas.

Ma'muriy sud hujjatlarini ijro qilmaganlik uchun qonunchilikda belgilangan normalarda ham muayyan muammoli jihatlar borligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, MSiyTK ning 276-moddasida sud hujjati ijro etilmagan taqdirda, Kodeksning 14-bobida belgilangan tartibda va miqdorda birinchi instansiya sudi tomonidan sud jarimasi solinishi hamda sud hujjatini ijro etish uchun bir oydan oshmaydigan takroriy muddat berilishi mustahkamlangan. MSiyTK ning 14-bobiga ko'ra ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa organlar, shuningdek tashkilotlar tomonidan sud hujjati ijro etilmagan taqdirda, ularning mansabdor shaxslariga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda sud jarimasi solinadi. Sud hujjati takroran ijro etilmagan taqdirda, dastlabki solingan jarimaning o'n baravari miqdorida sud jarimasi solinadi. Mantiqan qaraydigan bo'lsak, ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarini ijro qilmagan mansabdor shaxslarga bunday miqdordagi jarimaninggina belgilanganligi sud hujjatlarini yana uzoq muddatlargacha ijro etilmay qilib ketishini keltirib chiqaradi.

Sud hujjatlarini ijrosini ta'minlashda sudyalarda uchun majburiy sanalgan ko'rsatmalar belgilangan Oliy Sud Plenumining qarorlarida ham maxsus normalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Tahlil qiladigan bo'lsak, 24-sonli OSPQ [9] da atigi bitta band, 15-sonli OSPQ [10] da esa Ma'muriy sud hujjatlarini ijro qilish bilan bog'liq hech qanday band belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu haqida J.Zoilboyev o'z maqolalarida tahlillarni keltirib o'tgan[11]. Fikrimizcha eng kamida 24-sonli hamda 15-sonli OSPQ larida sud hujjatlarini ijroga qaratish bilan bog'liq bo'lgan bandlar kiritilishi yoki alohida Plenum qarorining qabul qilinishi kerak.

Xorijiy davlatlar qonunchiligan tahlil qiladigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga ko'ra bir qator ijrobiy jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, ma'lum bir toifadagi ma'muriy ishlar bo'yicha qarorlarni zudlik bilan ijro etish to'g'risida kodeksda to'g'ridan-to'g'ri taqiq bo'lmasa, sud ma'muriy arizachining iltimosiga binoan ma'muriy ish bo'yicha qarorni darhol ijro etishga majbur qilishi mumkin, agar muayyan holatlar tufayli ushbu qarorning ijroga qaratilishi jamoat yoki xususiy manfaatlarga katta zarar etkazishi mumkin deb hisoblansa. Bu borada Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida belgilangan qoidaning muhimligiga e'tibor berishimiz zarur. Mazkur qoidagi milliy qonunchiligimizga qo'shish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sud qarorini darhol ijro etish masalasi uning qabul qilinishi bilan bir vaqtda ko'rib chiqilishi mumkin. Sud qarorini zudlik bilan ijro etishga chaqirish masalasi sud majlisida hal etiladi.

Ukraina qonunchiligiga ko'ra ma'muriy ishlar bo'yicha sud qarorlarining bajarilishini sud nazorati haqidagi alohida normada aks etganligini ko'rish mumkin. Unga ko'ra, ma'muriy ish bo'yicha sud hal qiluv qarorini ijro etish yoki ijro etilmaganlik holati yuzasidan ma'muriy organlarni hisobot taqdim etishga majburlashi qonuniy qilib belgilab qo'yilgan. Sud qarorini ijro etish to'g'risidagi hokimiyat subektining hisobotini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra yoki bunday hisobot taqdim etilmagan taqdirda, sudya o'z qarori bilan hisobotni taqdim etishning yangi muddatini belgilashi, qarorni bajarish uchun mas'ul bo'lgan hokimiyat subekti rahbariga mehnatga layoqatli shaxslar uchun yashash minimumining yigirma barobaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishi mumkin[12]. Jarima summasining yarmi arizachi foydasiga, qolgan yarmi Ukraina Davlat byudjetiga undiriladi. Jarima solish masalasi arizachining iltimosiga binoan yoki sudyaning tashabbusi bilan sud majlisida tomonlarning xabarnomasi bilan hal qilinadi. Tegishli ravishda xabardor qilingan tomonlarning sud Majlisiga kelmasligi ushbu masalani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Jarima solinishi sud hujjatini qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

**Natijalar.** O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchiligi hamda xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilishdan shu ayon bo'ladiki, sud hujjatlarini ijro qilish institutini rivojlantirish yuzasidan jiddiy qadamlarni tashlash vaqti kelgan. Jumladan, avvallo bu masalada qonunchilik normalarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, birinchidan MSIYtK ning 27-moddasida nazarda tutilgan barcha toifadagi ishlar yuzasidan qabul qilingan sud hal qiluv qarorlarini darhol ijroga qaratish haqida normalar mustahkamlanishi shart. Buning natijasida avvalo, sudga murojaat qiluvchi shaxslarning sudga hamda qonunchilikka bo'lgan ishonchi va hurmati shakllanadi, shu bilan birga esa, nizolarni hal qilib bergan sud hujjatlarining iroga qaratilishi, ya'ni qisqa muddatda ijroga qaratilishi natijasida huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlari tezroq tiklanadi. Ikkinchidan, sud hujjatlarini darhol ijroga qararish yoki uning shart emasligi haqidagi talabni arizachi yoki javobgardan so'ragan holda ish ko'rib chiqilgan sud majlisida ko'rib chiqib hal qilish ijobiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Bu bilan ortiqcha ovoragarchilik hamda ishonchsizlikning oldini olgan bo'ladi. Uchunchidan, sud hujjatlarini vaqtida ijro qilmagan hamda qonuniy kuchga kirishiga to'sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan qat'iyroq jazo choralarini qo'llash huquqning majburlash funksiyasi hamda tarbiyalash funksiyasini ham amalda joriy etilishi bo'lib xizmat qiladi, fikrimizcha.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlarning qonuniy kuchga kirishi hamda ijroga qaratilishi faqatgina sud ishtirokchilari

uchun ahamiyat kasb etmaydi. Mazkur hujjatlarni qonuniy kuchga kirishi hamda samarali ijroga qaratilishi mulkning to'g'ri tasarruf etilishini, davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishini, davlat xizmatlarining samarali ko'rsatilishini, investitsiyaviy hamda raqobat bilan bog'liq munosabarlarda vakolatli subyektlarning o'z vazifalarini, funksiyalarini to'g'ri amalga oshirishlarini ta'minlab beradi. Buning natijasida esa ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanadi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinadi; ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashiladi hamda eng muhimi fuqarolarda va yuridik shaxslarda qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirilgan bo'ladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks. 2-moddasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son
2. Tog'oyeva, M. . (2024). SUD HUJJATLARINING HUQUQNI QO'LLASH HUJJATLARI TIZIMIDAGI O'RNI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 3(5 Part 3), 172–176. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/33072>
3. <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/287>
4. Бозоров , М. . (2023). СУД ХУЖЖАТЛАРИНИ ИЖРО ЭТМАСЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ: ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ БИЛАН ҚИЁСИЙ ХУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 2), 184–189. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ear/article/view/8669>
5. Рамазанов Сайфилло Нарзиллоевич. (2023). БАЪЗИ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА СУД ХУЖЖАТЛАРИНИ ИЖРО ЭТМАГАНЛИК УЧУН ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК. Uzbek Scholar Journal, 16, 53–62. Retrieved from <https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/591>
6. Мардонов , К. 2023. Опыт зарубежных стран по прокурорскому надзору за соблюдением законов при исполнении судебных документов и документов других органов. Общество и инновации. 4, 7/S (авг. 2023), 70–80. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp70-80>.
7. Дониёров , А. (2024). МАЪМУРИЙ СУД ХУЖЖАТЛАРИНИ ИЖРО ЭТИШНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1891>
8. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/view/9621>
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.12.2019 yildagi 24-son// <https://lex.uz/docs/-4711311>
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori, 19.05.2018 yildagi 15-son// <https://lex.uz/docs/-3761216>
11. Zoilboev , J. (2024). The Decision of the Administrative Court as a Means of Protecting the Violated Rights and Interests of Individuals. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(7), 276-281. <https://doi.org/10.5281/>
12. <https://index.minfin.com.ua/labour/wagemin/>

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).